yat ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy o‘zgarishlarni qay tariqa qabul qilishni va murosa yo‘lini tanlay olishni hisobga olishi darkor.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot konfliktning ijtimoiy o‘zgarishlarga munosabatini ko‘rsatish va ochib berishning argumentativ nuqtai nazari hayotiy va inson omiliga bog‘liq degan xulosaga keladi. Ba’zi ekspertlar doimiy mojorolar yoki to‘qnashuvlarni ijtimoiy o‘zgarish emas, balki ijtimoiy ziddiyat deb hisoblashadi. O‘zgarish faqat konfliktning natijasi bo‘lganligi sababli, bu qarash ziddiyat tariqasida davom etsa, o‘zgarish ham sodir bo‘ladi degan taxminga asoslanadi. To‘qnashuv ijtimoiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin, chunki ishtirok etgan ishtirokchilar odamlarning o‘zlari sanaladi. Umuman olganda, ijtimoiy nizolar 3 ta narsadan kelib chiqishi mumkin: fikrlashdagi farqlanish, manfaatlarning o‘zaro to‘qnashuvi hamda ijtimoiy hasad. Mojaro ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy ziddiyatning ijobiy ta’siri ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradigan siyosat o‘zgarishlari, integratsiya va ichki guruh birdamligini kuchaytirish, yanada dinamik jamiyatni ishga tushirish kabi ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirishdan iborat. Konfliktlar jamiyatdagi turli qarashlar va manfaatlarning to'qnashuvini ko‘rsatadi. Bu o‘quvchilarga ijtimoiy o'zgarishlarni turli nuqtai nazarlardan tushunishga yordam beradi. Badiiy adabiyotdagi konfliktlar ijtimoiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq, adabiyot esa ijtimoiy muammolarni aks ettiradi, ularga javob beradi, hatto ularga ta’sir qiladi. Konfliktlar orqali o‘quvchilar ijtimoiy o‘zgarishlarni chuqurroq anglaydi va o‘zlari ham o‘zgarishlar uchun harakat qiladilar. Zotan, adabiyot ijtimoiy taraqqiyotning muhim vositasi ekanligini aytishimiz o‘rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdulsyani. (1992). Nazariya va amaliy sxematik sotsiologiya. Jakarta, Bumi Aksara.

(2). Appelbaum, R.P. (1970). Ijtimoiy o‘zgarishlar nazariyalari. Chikago, Markham.

(3). Bernard, R. (2007). Zamonaviy sotsiologik nazariya, Jakarta, nashriyot kutubxonasining yutug‘i.

(4). Bennis, W.G. (1989). O‘zgarishlarni rejalashtirish. 4-nashr. Nyu-York, Xolt Reynxart va Uinston. Boulding, Kennet E. 1962. Mojaro va Himoya. Umumiy nazariya. Nyu-York, Harper & Row.

(5). Burton, J.V. (1969). Mojaro va aloqa. London, Makmillan.

(6). Chin, R. va K.D. Benne 1989. Inson tizimlaridagi o‘zgarishlarga ta’sir qilishning umumiy strategiyalari, in: Warren G.

(7). Garna, J.K. (1992). Ijtimoiy o‘zgarishlar nazariyalari. Bandung, Unpad.

(8). Siregar, I., Rahmadiyah, F., Siregar, A.F.Q. (2021). G‘azablangan, xavotirli va qo‘rqinchli shizofreniya bilan og‘rigan bemorlarning hamshiralik jarayonida terapevtik muloqot strategiyalari. Britaniya hamshiralik tadqiqotlari jurnali, 1(1), 13–19. https://doi.org/10.32996/bjns.2021.1.1.3

Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi (Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi; sayyora19900309@gmail.com)

“BOBURNOMA” SUJETI VA TAVSIFLASH PRINSIPI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Boburnoma” sujeti juda murakkab, bir necha tarmoqqa ega ekanligi, “Boburnoma” sujetini tarkibiy jihatdan adabiyotshunoslikda zamonaviy metod hisoblangan struktural poetika talablari asosida o‘rganish asarning obrazlar olamini tushunish va uning poetikasiga doir ilmiy xulosalar qilishga asos bera olishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma” sujeti, hayotiy-tayyor syujetlar, xronikal sujet, tugun, kulminatsiya, peyzaj, sujet strukturasi.*

Казакова Сайёра Сабитхан кызы (исследователь Наманганского государственного университета; sayyora19900309@gmail.com)

СЮЖЕТ И ПРИНЦИП ОПИСАНИЯ “БОБУРНОМЫ”

Аннотация. *В данной статье речь пойдет о том, что сюжет “Бабурномы” очень сложен, имеет несколько ветвей, изучение сюжета “Бабурномы” структурно на основе требований структурной поэтики, считающейся современным методом в литературоведении, способно дать основание для понимания мира образов произведения и сделать научные выводы о его поэтике.*

Ключевые слова: *сюжет”Бабурнома”, жизненные-готовые сюжеты, хроникальный сюжет, узел, кульминация, пейзаж, сюжетная структура.*

Kazakova Sayyora (Namangan State University research fellow; sayyora19900309@gmail.com)

THE PLOT AND DESCRIPTION PRINCIPLE OF “BOBURNOMA”

Annotation. *this article tells about the fact that the plot of the “Boburnoma” is very complex, has several branches, the plot of the “Boburnoma” is structurally based on the requirements of structural*

Poetics, which are considered a modern method in literary studies, which can give reason to understand the universe of images of the work and make scientific conclusions about its poetics.

Keywords: *"Boburnoma" plot, life-ready plots, chronic plot, knot, culmination, landscape, plot structure.*

Kirish. "Boburnoma" Boburning shoh asari bo'lishi bilan bir qatorda Markaziy Osiyo, Eron va Afg'oniston, Hindiston va Pokiston xalqlarining tarixi, madaniyati va badiiyatiga doxil nodir manbadir. Asarning jahon miqyosida e'tirof etilishiga sabab undagi voqealarning tarixiy jihatdan aniqligigina emas, bu muhtasham asarning tarkiblanishi jihatidan ham mustahkam ilmiy va badiiy asosga qurilganligidir. "Boburnoma" tarkibida mingdan ortiq shaxslar va timsollar mavjud bo'lib, tarixiy siymolar xarakteri, ijodi namunalari ham tahlil etilgan. "Boburnoma" sujeti va kompozitsiyasini tarkibiy jihatdan adabiyotshunoslikda zamonaviy metod hisoblangan struktural poetika talablari asosida o'rganish asarning obrazlar olamini tushunish va uning poetikasiga doir ilmiy xulosalar qilishga asos beradi.

Adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyoda Bobur hayoti va ijodi dastlab o'nlab tazkiralarda qayd etilgan bo'lishiga qaramay yangi ilmiy asosda professor Fitratning maqola va majmualari, H.Yoqubov, M. Shayxzoda, V.Zohidov ishlaridan tortib, hozirgi kunga qadar jiddiy davom etmoqda. Bobur lirikasi, "Boburnoma" bo'yicha qator ilmiy maqola va tadqiqotlar yaratilgan.

Biroq Bobur va tasavvuf adabiyoti, xususan, uning naqshbandiylik tariqati hamda uning yirik vakili Xoja Ahror Valiyga bo'lgan munosabatlari hali yetarlicha tadqiq qilinmagan. "Mubayyin" asari ham endi tadqiq etila boshlandi. Shuningdek, "Boburnoma" asarining ham o'rganilmagan va tadqiq etilmagan tomonlari talaygina. Mazkur maqolada "Boburnoma" asarining sujeti struktural metod talablari asosida tahlilga tortilmoqda.

Tahlillar va natijalar. "Sujet" – fransuzcha so'z bo'lib, "predmet", "tasvirlanayotgan yoki bayon qilinayotgan narsa", "asosiga qo'yilgan narsa" degan ma'nolarni anglatadi.

Adabiyotshunos I.Sulton badiiy asarda hikoya qilinayotgan voqeaga "sujet", deb ta'rif bergan. Ya'ni, sujet badiiy asarlarning bevosita mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi hayotiy voqealar tizimidir [1;179-b.].

Har qanday voqea badiiy syujet bo'lavermaydi. Balki muayyan badiiy konsepsiyaga asoslangan voqealar va xarakterlar birligi syujetni tashkil qiladi. Ayrim asarlarda xarakterlar mantig'i syujetni boshqarsa, bir xil asarlarda voqealar mantig'i sujetni tashkil qiladi, xarakterning tarixida voqelik muhim ahamiyat kasb etadi.

"Boburnoma" sujeti juda murakkab, bir necha tarmoqqa ega. Adabiyotshunoslar F.M.Golovenchenko va M.Qo'shjonovlar badiiy asar sujetida xarakterlar mantig'i va voqealar mantig'i bo'ladi deya ta'kidlashgan. "Boburnoma"da voqealar mantig'i yetakchilik qiladi. Sababi asar sarguzasht xarakterida. Asar voqealari Boburning taxtga chiqish voqeasi bilan boshlanadi:

"*Tengri taoloning inoyati va hazrati on Sarvari koinotning shafoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni ramazon oyining tarix sekkiz yuz to'qson to'qqizda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldum*"[2;34-b.]. Demak, Zahiriddin Muhammad Bobur o'n ikki yoshlik paytida Farg'ona taxtiga o'tirgan. Bu voqea hijriy 899-yil ramazon oyining beshinchi kuni yuz bergan. Bu vaqt milodiy hisobda 1494-yil 9-iyun seshanba kuniga to'g'ri keladi. Demak, syujet voqealarining boshlanish nuqtasi: joyi va vaqti muallif tomonidan asar boshlanmasida aytib ketilmoqda. Yosh Boburning hayot kundaligi va biz tadqiq etayotgan "Boburnoma" matni shunday kirish so'z bilan boshlanmoqda. Shundan so'ng, Farg'ona viloyatining o'rnashgan joyi, chegaralari, xalqi, katta shaharlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Ya'ni keyingi voqealarning sodir bo'lish joyi bilan kitobxonni batafsil tanishtiriladi. So'ng, 39 yoshida Axsi qo'rg'onida jardan yiqilib halok bo'lgan Umarshayx mirzo voqeasi bayon qilinadi. Aynan shu voqeadan Boburning mashaqqatlarga to'la hayoti tasviri boshlanadi. Asar voqealari davomida taxt mojarolari, Boburning Samarqand taxtini egallashi, Andijondagi fitnalar, Kobul va Hindiston safarida kechgan voqealar qalamga olinadi.

Asar tarixiy mazmunda bo'lgani sababli hayotiy-tayyor sujetlar asosida yaratilgan. Shu sababli ham bu asar realistik nasrning eng yetuk namunasi sifatida baholangan. Umarshayx mirzo, Boysunqur mir-zo, Sultonali mirzo, Shayboniyxon hayoti voqelari, shuningdek, Xurosonda Husayn Boyqaro o'g'illari bi-lan kechgan voqealar yozilajak asar uchun tayyor hayotiy sujet edi. Bobur asarni yozish davomida bu voqelarni birin-ketin ko'z oldidan o'tkazadi. Voqelar zanjiri shu qadar mustahkamki, undagi biron-bir halqa uzilsa, voqelar ifodasida noaniqlik paydo bo'ladi. Shu sababli biron bir yil voqealarini ham tashlab ketib bo'lmaydi. Misol uchun, qahramon Boburning nima sababdan Hindiston tomonga otlangani voqelarini bilish uchun, uning Farg'ona va Kobulda kechgan hayoti voqelari bilan tanishish zarur bo'ladi.

Asar voqealari ketma-ket sodir bo‘lganligi uchun xronikal sujet deya olamiz. Asarda sujet un-surlaridan hisoblangan ekspozitsiyaning o‘rni juda ahamiyatli. Deyarli har bir voqea oldidan muallif bataf-sil tushuntirish beradi. Xususan, Andijon, Samarqand va uning atrofi, Xuroson, Kobul, Hindiston mamlakatlari tasviri fikrimning dalilidir. Birgina misol, bosh qahramon Bobur o‘z yurishlar davomida Hindiston o‘lkalaridan biri Chanderiyda kechadigan voqelar oldidan quyidagi tasvirni keltiradi: *“Chanderiy burun Mandav podshohlarig‘a taalluq ekandur, Sulton Nosiriddin o‘lganidin so‘ng, bir o‘g‘li, Sulton Mahmud-kim, holo Mandavdadur, Mandavg‘a va ul navohig‘a mutasarrif bo‘lur. Yana bir o‘g‘li Muhammadshoh otliq Chanderiyni iliklab, Sulton Iskandarg‘a iltijo kelturur. Sulton Iskandar ham qalin cheriklar yiborib, aning homiysi bo‘lur. Sulton Iskandardin so‘ng Sulton Ibrohimning zamonida Muhammadshoh o‘lar, Ahmadshoh otliq kichikkina o‘g‘li qolur. Sulton Ibrohim Ahmadshohni chiqarib, o‘z kishisini qo‘yar. Raana Sangaa Ibrohimning ustiga cherik tortib, Do‘lpur kelganda beklari muxolafat qilurlar. Ushul fursatta Chanderiy Sangaaning iligiga tushar. Mediniy Rav otliq ulug‘ mu’tabar kofirg‘a berur. Bu fursatta to‘rt-besh ming kofir bila Mediniy Rav Chanderiy qo‘rg‘onida edi. Oroyishxonning oshnolig‘i bor ekandur. Oroyishxon bila Shayx Guranni yiborib, inoyat va shafqat so‘zlari aytildi. Chanderiyning mubodalasig‘a Shamsobodni va’da qilildi. Bir-ikki e’tiborliq kishisi chiqti. Bilmon, e’timod qilmadimu, yo qo‘rg‘onig‘a ishondimu, isloh ishi somon topmadi.*

Chanderiy qo‘rg‘onig‘a zo‘rlamoq azimati bila seshanba sabohi, jumodiul avval oyining oltisida Bahjatxonning havzidin ko‘chub, qo‘rg‘onning yaqinidag‘i o‘rta havzning yoqasida tushuldi” [2;234-b]. Bu batafsil lavhani o‘qigandan so‘ng, kitobon ko‘z o‘ngida Chanderiy tog‘lari bag‘ridagi Chanderiy qo‘rg‘oni va bu qo‘rg‘onni egallash niyatida harakat qilayotgan Bobur siymosi gavdalanadi.

Bilamizki, badiiy asar syujetida tugun alohida ahamiyatga ega. Tugun o‘quvchini asar ichkarisiga yetaklaydi. “Boburnoma” voqealar shu darajada jadalki, buni asardagi tugunlar sonining ko‘pligi bilan izohlash mumkin. Sababi, bosh qahramon, ya’ni hikoyasi qahramon hayoti hamisha alg‘ov-dalg‘ovlarga to‘la bo‘lgan. Asardagi birinchi tugun Umarshayx mirzoning o‘limi. Aynan shu voqea tufayli asarga Bobur shaxsi kirib keladi. Uning alg‘ov-dalg‘ovlarga to‘la hayoti aynan shu voqea sabab boshlanadi. Uning hukmdorlik faoliyati bilan bog‘liq hodisalardan voqealar rivojlanib boradi. Dastlab, Samarqandga intilish, shu intilish sabab Andijondan ayrilish, so‘ng har ikki yurtdan ham mahrum bo‘lib, Kobul, Hind mamlakatlariga yuz burish bular voqelar zanjirining asosini tashkil qiladi.

Asar voqealarini kuzatish jarayonida bir nechta kulminatsion nuqtalarni ko‘rish mumkin. Xususan, Boburning o‘limdan qolish lavhasi. Bunday holat juda ko‘p bor yuz beradi. Dastlab, Samarqandda 100 kun podshohlik qilgan paytlari bir o‘limdan qolgan bo‘lsa, so‘ngra sarson sargardonlikda yurgan kezlari ana shunday holat kuzatiladi. Shuningdek, yurtidan ajaralib sarson sargardonlikda yurgan Bobur hayoti hijriy 908, milodiy 1502–1503-yillarda ham ana shunday voqea yuz beradi. Tanbal qo‘shinlaridan yengilgan Bobur hayoti xavf ostida qoladi. Bobur oz odam bilan chekinishga majbur bo‘ladi. Ular Sang suvining yuqorisiga yetganlarida faqat sakkiz kishi qoladilar. Oxiri Bobur bir o‘zi qoladi. Shu payt unga ikki dushman yaqinlashadi. Bular: Bobo Sayromiy va Banda Ali bo‘ladilar. Bobur tog‘ tomonga qarab boraveradi. Shunda ular: *“Mundoq etib qayon borasiz? Jahongir Mirzoni tutib keltirdilar. Nosir Mirzo ham ularning qo‘liga tushgan”*, deydilar. Bobur javob bermay, tog‘ sari boraveradi. Oxiri, kech bo‘ladi. Bobur toqqa yetib, bir tosh ortiga o‘tadi. Ular orqadan yetib kelishib, ont ichishib Sulton Ahmadxon Boburni podshoh qilishini aytishadi. Oxiri har uchalasi tuni bilan yo‘l bosib, G‘avo yo‘liga boradilar. Yo‘ldan adashadilar. Ertasi kun bir yaylovda otlarni o‘tlatib, turganlarida G‘avoning boshlig‘i Qodirberdi ko‘rinadi. Uni biror narsa keltirmoq uchun qishloqqa yuboradilar. Ammo u qaytmaydi. Bular Karnon yaqinidagi xilvat bog‘larga borib berkinadilar. Shunda shayx Boyazidbekning odami Boburni yo‘qlab keladi. Uni Tanbal huzuriga eltmoqchi bo‘ladi. Bobur o‘limga rozi bo‘lib turganda to‘satdan o‘nbesh-yigirma otliq kirib kelalar. Ular Boburning sadoqatli odamlari Qutluq Muhammad Barlos va Boboyi Pargariy va ularning yigitlari bo‘ladi. Bu safar ham qahramonimiz bir o‘limdan qoladi. Hikoyachi qahramon tilidan aytib berilgan bu voqea har qanday o‘quvchini zo‘r hayajonga soladi. Endi buyog‘i nima bo‘larkin, deya o‘ylantiradi. Voqealar zanjiridagi bu voqea Boburning Kobul tomonlarga bosh olib ketishiga sabab bo‘ladi.

Eng asosiy kulminatsiya Malika Bayda tomonidan Boburning zaharlanish voqeasidir. Sujet voqealari, asosan, Andijon, Samarqand, Toshkent, Xuroson, Kobul va Hindistonda bo‘lib o‘tadi. Asar voqealari davomida ham turli obrazlarga chizgi va xarakteristika berib o‘tiladi. Xususan, Sulton Ali mirzo, Zuhrabegim, Dilovarxon, Qosimbek kabilar.

Adabiyotshunoslikda peyzaj xususida turli qarashlar mavjud. Ko‘pchiligida peyzaj tabiat tasviri ekani ta’kidlanadi. Shuningdek, ba’zi olimlar peyzajni sujet elementi deb qarasa, ayrim olimlar esa kompo-

zitsiya tarkibi sifatida e'tirof etishadi. Ba'zi qarashlarda peyzajning tarkibiy qismi sifatida interyer ham sanab ketilgan.

Bobur asar voqealari bo'lib o'tayotgan joy manzaralarini ham mohir rassomlardek tasvirlaydi. Shuningdek, ayrim joy nomlarining etimologiyasini ham aytib o'tadi. Xususan, "Xo'jand bila Kandibodom orasida bir dashte tushubtur, Xodarveshg'a mavsumdur. Hamisha bu dashtta yel bordur. Marg'inong'akim, sharqidur, hamisha mundin yel borur. Xo'jandg'akim, g'arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor.

Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo'lukub, bir-birini topolmay "Ho darvesh", "Ho darvesh" deya-deya tamom halok bo'lurlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar [2;36-b.].

Ko'rinadi, Bobur joy nomini tasvirlash bilan birgalikda, u joy haqida, ya'ni, joy nomining kelib chiqishi va xosiyati haqida ham tushuntirish berib o'tadi.

Xulosalar. Demak, asarning sujet strukturasi boshqa tarixiy mazmundagi asarlardan tubdan farq qilib, o'ziga xos qurilish va mantiqqa ega. Bu sujet elementlarining joylashuvi va sujet voqealarining berilishida ham ko'zga tashlanadi. Xullas, asar sujeti va sujetni tashkil qilgan voqealar kitobxon ko'z o'ngida salkam qirq yillik tarixni jonlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). И.Султон. Адабиёт назарияси, Т., 1980, 179-бет.

(2). Заҳириддин Муҳаммад Бобур. "Бобурнома". Т., "Шарқ", НМАК, 2002.

(3). Иброҳимов А. "Бобурнома" – буюк асар. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.

(4). Лотман Ю.М. Структура художественного текста. Об искусстве. СПб., "Искусство – СПБ", 1998.

(5). Ёқубов И. Стуруктурал поэтика имкониятлари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2006, 3-сон.

(6). Ҳаққул И. Бадиий матн ва таҳлил муаммолари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2009, 1-сон.

(7). Мелиев С. Структурализм ва структур таҳлил ҳақида. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2008, 2-сон.

(8). Қудратуллаев Ҳ. "Бобурнома" ва тарих. "Тафаккур", 2001, 6-сон.

Qarshibayeva Uljan Davirovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti professori, filologiya fanlari doktori; e-mail: k.uljan70.@mail.ru)

BALZAK ASARLARI QAHRAMONLARI TAQDIRIGA IJTIMOIY MUHIT TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Balzakning ikki "Gorio ota" va "Dahriyning ibodati" asari bosh qahramonlari Gorio ota va Deplen obrazlari qiyosiy o'rganilgan. XIX asrdagi ijtimoiy muhitning qahramonlar taqdiriga ta'siri ochib berilgan. Bir ijtimoiy muhit ta'siridan inqirozga yuz tutgan va yuksaklikka erishgan qahramonlar taqdiri tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *xarakter, individual xususiyat, ijtimoiy muhit, obraz, qahramon, e'tiqod, din, dahriy, realizm.*

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ НА СУДЬБЫ ГЕРОЕВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ БАЛЬЗАКА

Аннотация. *Эта статья представляет собой сравнительное исследование характеров отец Горио и Деплена, главных героев двух произведений Бальзака "Отец Горио" и "Обедня безбожника". Раскрывается влияние социальной среды 19 века на судьбы героев. Анализу были подвергнуты судьбы героев, переживших кризис от влияния одной социальной среды и достигших высот.*

Ключевые слова: *характер, индивидуальная черта, социальное окружение, образ, герой, вера, религия, атеист, реализм.*

THE INFLUENCE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT ON THE FATE OF THE CHARACTERS IN BALZAC'S WORKS

Annotation*. This article is a comparative study of the characters of Father Goriot and Desplaines, the main characters of two works by Balzac "Father Goriot" and "Mass of the Atheist."The influence of the social environment of the 19th century on the fate of the heroes is revealed.The fates of the heroes who survived the crisis from the influence of one social environment and reached heights were analyzed.*

Keywords: *character, individualtrait, socialenvironment, image, hero, faith, religion, atheist, realism.*

Kirish. Har bir badiiy asar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlilga tortilar ekan, albatta, badiiy asarning shakl va mazmun jihatdan mukammalligi, asosan, uning sujet va kompozitsion muvofiqligida namoyon bo'lishi kuzatiladi. Yaratilayotgan badiiy ijod namunasi o'z-o'zidan aynan bir davrning dolzarb voqeligini asosiy g'oya sifatida yoritadi, muammolarini ilgari suradi va o'z g'oyasiga singdiradi. Davrning